

BAHODIR QOBULNING ADABIY PORTRET YARATISH MAHORATI

Abdujalilova Gulmiraxon Odiljon qizi,
Namangan davlat pedagogika instituti
1-bosqich tayanch doktoranti
E-mail: gulmiraxonsultonova71@gmail.com
Tel: +99891 326 52 67

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.21200201>

Annotatsiya

Badiiy asar strukturasi portret muhim ahamiyat kasb etadi. U muallif g’oyaviy-estetik qarashlarini ifodalashda yetakchi unsur hisoblanadi. Qahramonning individual-psixologik qiyofasi qanday yaratilgani orqali muallif uslubiga xos xususiyatlar namoyon bo’ladi. Mazkur maqolada Bahodir Qobul qissalaridagi portret na’munalarning muallif badiiy niyatini amalga oshirishdagi roli haqida fikr yuritiladi.

Kalit so’zlar: portret, qissa, muallif, yozuvchi uslubi, tashqi qiyofa.

Аннотация

Портретная живопись играет важную роль в структуре произведения искусства. Она является ведущим элементом в выражении идеологических и эстетических взглядов автора. Создается индивидуальный и психологический образ героя, раскрывающий особенности авторского стиля. В данной статье рассматривается роль портретных примеров в рассказах Баходира Кабула в реализации художественного замысла автора.

Ключевые слова: портрет, рассказ, автор, стиль письма, внешность

Abstract

Portraiture plays an important role in the structure of a work of art. It is a leading element in expressing the author's ideological and aesthetic views. The individual and psychological image of the hero is created, which reveals the features of the author's style. This article discusses the role of portrait examples in the stories of Bahodir Qabul in realizing the author's artistic intention.

Keywords: portrait, story, author, writing style, appearance

Kirish. Badiiy asarning muhim tarkibiy qismlaridan biri portret hisoblanadi. U muallif g’oyaviy-estetik qarashlarini ifodalashda yetakchi unsur hisoblanadi. Xususan, Bahodir Qobul qissalaridagi portret na’munalari tadqiq qilish, asar badiiyatidagi o’rnini aniqlash muhim masalalardan biri hisoblanadi.

Asosiy qism. Badiiy asarda kishilarning tashqi ko’rinishi, xulq-atvori o’ziga xos tarzda yozuvchi tomonidan badiiy ishlov berilib yaratiladi. Bu adabiy portret deyiladi. Adabiyotshunos olim Izzat Sulton badiiy asardagi portret masalasiga quyidagicha ta’rif beradi.

“Kishilarning asarda badiiy so’z vositasida chizilgan tashqi qiyofasi portret deb ataladi. Portretga yana qahramonning gap ohangi, o’ziga xos qiliqlari va turli ruhiy holatlar munosabati bilan uning yuzida bo’ladigan o’zgarishlar (mimika) ham kiradi.” [3:108]

Badiiy asarda kishilarning tashqi qiyofasi, mimikasi kitobxon ko’z o’ngida asar qahramonlarini gavdalantirishga xizmat qiladigan muhim omillardan biridir. Ijodkor so’zlar vositasida qahramon portretini chizish bilan birga kitobxonning unga bo’lgan munosabatini ham oldindan belgilab beradi.

Adabiyotshunos To’xta Boboyev esa nisbatan kengroq fikrlarni keltirib o’tgan.

“Portret atamasi, odatda, ikki ma’noda, ya’ni qahramonning tashqi ko’rinishi (tor ma’noda) va qahramonning individual-psixologik qiyofasi (keng ma’noda) qo’llaniladi. San’atkor yozuvchi qahramonning tashqi qiyofasini chizish orqali ham uning ruhiyatiga kirishga intiladi. Xususan, portret unsurlaridan ko’z, yuz, kulgi, ko’z yoshi va boshqalar san’atkor uchun qahramon ruhiy dunyosini ochuvchi kalit bo’lib xizmat qiladi.” [2:106]

Haqiqatan ham, portret qahramonning tashqi qiyofasi bilan birga uning ichki dunyosini ham ochishga ham xizmat qiladi.

Bahodir Qobul asarlarida portretning o’ziga xos ko’rinishi uchraydi. Portret asosan qahramonlarning monologik va dialogik nutqi vositasida keltiriladi.

“O’shanda tengqurlariga qo’shib hujjatlarini raysabzga olib borgandi, igna yutgan itdek oriqlik bir yigit “Boboy, eshingiz etmaydi, biroz kutasiz”, desa bo’ladimi?” [2:68]

Ushbu jumlar orqali yozuvchi o’ziga xos usulda portret yaratgan. Birgina igna yutgan itdek oriqlik bir yigit jumlasini keltirish orqali personajning jussasi ozg’in ekanligi bilan birga unga bo’lgan salbiy munosabatini ham keltirib o’tgan.

“Rosayam xafa qilishsa, uzzu-kun yelkasiga otamning eski choponini tashlab, bo’ri o’tirish qilib o’tiradigan Enamni orqa qilib, choponning ichiga kirib ketaman. Enamning bellaridan quchoqlab olaman. Kulatalari ustidan tushib kelgan sochpopuklariga osilgan kalit-u jangul-jungul g’ubbachalarni qayta-qayta sanayman” [2: 254].

Ushbu jumlar orqali asar qahramonining tilidan boshqa bir obrazga portret chizilganligi ko’rish mumkin. Ushbu ko’rinishda portret yaratish yozuvchining naqadar mahoratli ekani, shuningdek o’ziga xos ijodiy uslubga ega ekanligini ko’rsatgan.

— Mana, Sariqbola, sizga, — dedilar otam galife shimlarining o’ng cho’ntagidan ikkita yigirma tiyinlik oq tanga va bitta yashil uch so’mlik va ikkita sariqlik bir so’mliklarni olib” [2:256].

“Shunda qoradan-qora betini tirishtirib, og’zi to’la tilla tishini ko’rsatgancha haydovchi opachamga imo qilib, menda yo’l haqlari borligini bildirdi” [2:265].

Yuqoridagi jumlar orqali ham yozuvchining o’ziga xos ko’rinishda yaratgan portret na’munalarini ko’rish mumkin.

Xulosa. Bahodir Qobul asarlarida portretning o’ziga xos ko’rinishi uchraydi. Portret asosan qahramonlarning monologik va dialogik nutqi vositasida keltiriladi. Maqol, matallar orqali personajni ta’riflash holatlari kuzatiladi. Shuningdek, birgina jumlaning keltirish orqali personajning tashqi ko’rinishi bilan birga unga bo’lgan salbiy munosabatini ham keltirishi uchraydi. Ushbu ko’rinishda portret yaratish yozuvchining naqadar mahoratli ekani, shuningdek o’ziga xos ijodiy uslubga ega ekanligini ko’rsatgan.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Бобоев Т. Адабиётшунослик асослари. Т.: “Ўзбекистон”, 2001. — 560 б.
2. Баҳодир Қобул. Енайўл. – Тошкент: Mashhur-Press, 2018.– 351б.
3. Sulton I. Adabiyot nazariyasi. Toshkent: – O’qituvchi, 2005.–256 b
4. Umurov H. Adabiyotshunoslik nazariyasi. – Toshkent: A.Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti, 2004. – B.136